

## KREATIV MUHITDA O‘YIN FAOLIYATI ORQALI BOLALARDA LIDERLIK XUSUSIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

*Mualliflar: Andijon  
davlat Pedagogika Instituti pedagogika  
va psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi  
Kadirova Omadxon,  
Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi  
201-guruh talabasi  
Sodiqova Zarifa*

**ANNOTATSIYA:** Mazkur maqlolada kreativ muhitda o‘yin faoliyatining tashkil etilishi orqali maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik xususiyatlarini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari yoritilgan. O‘yin faoliyati orqali bolalarning mustaqillik, tashabbuskorlik, qaror qabul qilish va jamoa bilan ishslash qobiliyatlarini shakllantirish usullari tahlil qilingan. Mualliflar bolalarda liderlik salohiyatini rivojlantirish uchun qulay pedagogik shart-sharoitlar yaratishning amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratganlar.

**ANNOTATION:** This article explores the psychological and pedagogical aspects of developing leadership qualities in preschool children through play activities in a creative environment. The authors analyze methods of forming children's independence, initiative, decision-making skills, and teamwork through play. Particular attention is paid to creating favorable pedagogical conditions for developing leadership potential in children.

**KALIT SO‘ZLAR:** kreativ muhit, o‘yin faoliyati, liderlik, maktabgacha ta’lim, tashabbuskorlik, mustaqillik

**KEYWORDS:** creative environment, play activity, leadership, preschool education, initiative, independence

### **KIRISH**

Maktabgacha ta’lim tizimi bolalarning intellektual, ijtimoiy va emotsiyonal rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ularning shaxs sifatida shakllanishida o‘yin faoliyatining ahamiyati beqiyosdir. Bugungi kunda bolalarda liderlik xususiyatlarini rivojlantirish dolzarb masala bo‘lib, bu yo‘lda kreativ muhit va to‘g‘ri tashkil etilgan o‘yin faoliyati muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi[1].

### **ASOSIY QISM**

Kreativ muhit tushunchasi va uning pedagogik ahamiyati

Kreativ muhit bu – bolalarda erkin fikrlash, yangi g‘oyalarni ilgari surish, o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish imkonini beruvchi sharoitdir. Bunday muhitda har bir bola o‘zini erkin his qiladi, o‘z fikrini bemalol ifodalaydi, tashabbus ko‘rsatadi va muammoni mustaqil hal qilishga intiladi[2].

O‘yin faoliyatining liderlikni shakllantirishdagi o‘rnini

Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o‘yin – bu asosiy faoliyat turidir. Rolli o‘yinlar, qurilish o‘yinlari, dramatik o‘yinlar va harakatli o‘yinlar orqali bolalarda quyidagi liderlik ko‘nikmalari rivojlanadi:

boshqalarga ta’sir eta olish;  
qaror qabul qilish;  
guruh faoliyatini boshqara olish;  
konfliktlarni hal qilish;  
javobgarlikni his qilish[3].

Pedagogning vazifasi

Tarbiya jarayonida pedagog quyidagi pedagogik sharoitlarni yaratishi zarur:  
bolaning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash;  
ijobiy psixologik muhitni shakllantirish;  
har bir bola uchun individual yondashuvni qo‘llash;  
o‘yin faoliyatida teng huquqlilik prinsipini ta’minlash.

Shuningdek, pedagog bolalarning harakatini kuzatib, ularga to‘g‘ri yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi va konstruktiv fikrlashga undashi kerak. Bu orqali bola o‘zining ichki salohiyatini namoyon etadi va liderlik fazilatlarini asta-sekin rivojlantiradi[4].

**Amaliy tavsiyalar**

1. Har kuni kreativ o‘yinlarga 30-40 daqiqa ajratish.
2. Har bir bolaga “rahbar” roli beriladigan navbatli o‘yinlar tashkil etish.
3. “Mas‘ul bola” lavozimini joriy etish – har kuni boshqa bola guruhda muhim vazifalarni bajaradi.
4. Kutilmagan topshiriqlar orqali bolalarning tez fikrashi va qaror qabul qilishiga imkon yaratish.

### **XULOSA**

Maktabgacha yoshdagi bolalarda liderlik xususiyatlarini shakllantirish ularning kelajakdagi ijtimoiy faolligi va muvaffaqiyatli hayot yo‘lini tanlashida muhim rol o‘ynaydi. Kreativ muhitda tashkil etilgan o‘yin faoliyati esa bu jarayonni samarali tarzda amalga oshirishga xizmat qiladi. Pedagogning vazifasi – bolalarning shaxsiy sifatlarini ochib beruvchi va ularni rag‘batlantiruvchi sharoitlarni yaratishdan iborat.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Qodirova M. Pedagogik texnologiyalar asoslari. – Toshkent: Fan, 2020.
2. Xudoyberdiyeva N. Maktabgacha ta’lim psixologiyasi. – Toshkent: TDPU, 2021.
3. Ergasheva Z. Bolalarda ijtimoiy faoliyotni rivojlantirish. // Ilm-fan va taraqqiyot jurnali. – 2023. №2.
4. Karimova L. Kreativ muhit va bolalar faoliyati. – Samarqand, 2022.

